

**Masofaviy bank xizmat ko‘rsatish tizimi orqali  
jismoniy shaxslarga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha  
ommaviy shartnoma-oferta**

Ushbu hujjat "ASIA ALLIANCE BANK" ATBning (bundan keyin matnda - Bank deb yuritiladi) rasmiy taklifi (ommaviy ofertasi) hisoblanib, Bank mijozlari - jismoniy shaxslarga (bundan keyin - Mijoz) Masofaviy bank xizmatlari tizimi orqali xizmat ko‘rsatishning standart shartlari va tartibini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi (O‘zR FK) 369-moddasining 2-bandiga muvofiq, quyida keltirilgan shartlarni qabul qilgan va Masofaviy bank xizmatlari tizimiga ulangan taqdirda, ushbu ofertani akseptlagan mijoz - jismoniy shaxs Buyurtmachiga aylanadi (O‘zR FK 370-moddasining 4-qismiga ko‘ra, ofertani akseptlash ofertada keltirilgan shartlar asosida shartnoma tuzishga tengdir), Bank va Buyurtmachi/Mijoz esa birgalikda ushbu shartnomaning Tomonlari hisoblanadi.

Yuqorida aytilgancha inobatga olib, ushbu ommaviy oferta matnini diqqat bilan o‘qib chiqing va Bank tariflari bilan tanishing. Agar siz ofertaning biror bandiga rozi bo‘lmashangiz, Bank sizga xizmatlardan foydalanishni rad etishni tavsiya etadi.

**1. ATAMALAR**

- 1.1. Oferta – ushbu hujjat "Masofaviy bank xizmati tizimi orqali jismoniy shaxsga xizmat ko‘rsatish bo‘yicha ommaviy shartnoma-oferta" hisoblanadi.
- 1.2. Oferta aksepti – Mijoz tomonidan ushbu ofertaning 3.1-bandida ko‘rsatilgan harakatlarni amalga oshirish orqali ofertani to‘liq va so‘zsiz qabul qilish.
- 1.3. Buyurtmachi/Mijoz – ofertani akseptlagan va shu tariqa ushbu shartnoma bo‘yicha Bank xizmatlarining buyurtmachisi bo‘lgan shaxs.
- 1.4. Oferta shartnomasi – Bank va Mijoz o‘rtasida mijoz-jismoniy shaxsga Masofaviy bank xizmatlari tizimi orqali xizmat ko‘rsatish bo‘yicha tuzilgan shartnoma bo‘lib, u ofertani qabul qilish orqali tuziladi (bundan keyin matnda "Shartnoma" deb yuritiladi).
- 1.5. Veb-sayt – Internetdagي Bankning rasmiy veb-sayti [www.aab.uz](http://www.aab.uz).
- 1.6. Masofaviy bank xizmati tizimi (bundan buyon matnda MBX tizimi deb yuritiladi) – bank mijozlari-jismoniy shaxslar tomonidan bank xizmatlarini masofadan turib olish uchun mo‘ljallangan bank dasturiy ta’minoti majmuasi. MBX tizimi quyidagilarni o‘z ichiga oladi: "Alliance Pay" mobil ilovasi, MBX tizimining ma’muriy boshqaruv paneli.
- 1.7. "Alliance Pay" mobil ilovasi (bundan keyin matnda mobil ilova deb yuritiladi) – Mijozning mobil qurilmasining operatsion tizimiga o‘rnataladigan dasturiy mahsulot bo‘lib, u orqali Mijoz MBX tizimi bilan o‘zaro aloqada bo‘ladi.

- 1.8. Login – Mijoz tomonidan ro‘yxatdan o‘tishda mobil telefon raqami ko‘rinishida ko‘rsatilgan foydalanuvchi nomi.
- 1.9. Parol – Mijozning kirishini tasdiqlash uchun mo‘ljallangan maxfiy so‘z yoki belgilar to‘plami.
- 1.10. Avtorizatsiya uchun bir martalik kod – MBX tizimida ro‘yxatdan o‘tishda ko‘rsatilgan mobil telefon raqamiga yuborilgan SMS-xabar ko‘rinishidagi oltitalik raqamdan iborat belgilar to‘plami. Avtorizatsiya kodi MBX tizimiga kirish uchun zarur.
- 1.11. Avtorizatsiya – Mijozga MBX tizimda ishlash huquqini tekshirish, tasdiqlash va taqdim etish jarayoni.
- 1.12. Bank kartasi – O‘zbekiston Respublikasi banki tomonidan chiqarilgan, uning egasiga to‘lov infratuzilmalari orqali to‘lovlarni amalga oshirish, naqd pul mablag‘larini olish, valyuta ayriboshlash va karta emitenti tomonidan belgilangan boshqa operatsiyalarni bajarish imkoniyatini beruvchi to‘lov kartasi.
- 1.13. Bank hisobvarag‘i – jamg‘arma depozit hisobvarag‘i, muddatli depozit hisobvarag‘i, ssuda hisobvarag‘i, talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘i, so‘mdagi maxsus karta hisobvarag‘i va boshqa hisobvaraqlar.
- 1.14. Jamg‘arma depozit hisobvarag‘i – Mijozlarning davriy badallari asosida shakllantiriladigan, muayyan maqsadlarni amalga oshirish uchun jamg‘ariladigan va ushbu maqsadlarga yo‘naltiriladigan yoki shartnomalar qilinganda qaytariladigan mablag‘lar hisobi yuritiladigan hisobvaraq.
- 1.15. Muddatli depozit hisobvarag‘i – shartnomada qat‘iy kelishilgan muddatga kiritilgan Mijozlarning mablag‘lari hisobi yuritiladigan hisobvaraq.
- 1.16. Ssuda hisobvarag‘i – Mijozga belgilangan tartibda berilgan kreditning hisobi yuritiladigan hisobvaraq.
- 1.17. Talab qilib olinguncha depozit hisobvarag‘i – Mijozning birinchi talabi bo‘yicha beriladigan yoki o‘tkaziladigan mablag‘lari hisobi yuritiladigan hisobvaraq.
- 1.18. Elektron hamyon – faqat MBX tizimi orqali boshqariladigan Mijoz mablag‘lari hisobi yuritiladigan hisobvaraq.
- 1.19. SKH – karta bo‘yicha o‘zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun Bank tomonidan Mijozga ochiladigan so‘mdagi bank kartasi hisobvarag‘i.
- 1.20. Xalqaro plastik karta – "ASIA ALLIANCE BANK" ATB tomonidan chiqarilgan, mijozning naqd pulsiz hisob-kitoblar amalga oshiriladigan milliy/xorijiy valyutadagi maxsus karta hisobvarag‘iga kirish imkonini beruvchi milliy/xorijiy valyutadagi karta.
- 1.21. Uchinchi shaxs - Shartnomaga aloqador bo‘lmagan jismoniy shaxs.

## **2. BANKNING MIJOZGA XIZMAT KO‘RSATISHINING UMUMIY SHARTLARI**

2.1. MBX tizimiga ulanish uchun Mijoz Android 6.0 yoki iOS 13 dan past bo‘lman operatsion tizimli Mobil qurilmaga va O‘zbekiston Respublikasi operatorlarining amal qilayotgan uyali aloqa raqamiga ega bo‘lishi lozim.

2.2. MBX tizimida operatsiyalarni amalga oshirish uchun Mijoz Play Market/AppGallery/AppStore orqali bankning mobil ilovasini yuklab olishi va uni mobil telefoniga o‘rnatishi kerak.

2.3. Mijozni MBX tizimida ro‘yxatdan o‘tkazish bankning mobil ilovasi orqali amalga oshiriladi. MBX tizimida ro‘yxatdan o‘tish uchun telefon raqamini kiritish va MBX tizimiga kirish uchun parol o‘rnatish zarur.

2.4. Bank tomonidan MBX tizimida xizmat ko‘rsatish uzlusiz avtomatik rejimda amalga oshiriladi, faqat Bankning amaliyot kuni davomida ko‘rsatiladigan bank xizmatlari bundan mustasno.

2.5. MBX tizimi Bankning mulki hisoblanadi.

2.6. MBX tizimi orqali ko‘rsatiladigan bank xizmatlarining shartlari bankning ichki hujjatlarida belgilanadi.

### **3. SHARTNOMA PREDMETI**

3.1. Shartnoma shartlari standart shaklda belgilangan bo‘lib, Mijoz o‘zining mobil qurilmasiga mobil ilovani o‘rnatishda ular bilan kelishgan holda qabul qilishi mumkin. MBX tizimida ro‘yxatdan o‘tish Mijozning ushbu Shartnomaga to‘liq qo‘shilganligini anglatadi. Shartnoma Mijoz MBX tizimida ro‘yxatdan o‘tgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi.

3.2. Mijoz mobil ilova yordamida MBX tizimida mavjud bo‘lgan elektron operatsiyalarni amalga oshirish huquqiga ega.

3.3. Shartnomaga qo‘shilish va MBX tizimiga ulanish orqali Mijoz Bank tariflari, MBX tizimida xizmat ko‘rsatish shartlari, ro‘yxatdan o‘tish shartlari, MBX tizimining ishlash tartibi, Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarmagan taqdirda yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xavf-xatarlar, shuningdek Tomonlarning huquq va majburiyatlari hamda ularning javobgarligi to‘g‘risida ma’lumot olganligini tasdiqlaydi.

3.4. Mijoz MBX tizimidan foydalanish orqali amalga oshirilgan operatsiyalar to‘g‘risidagi ma’lumotlar MBX tizimini qo‘llash bilan bog‘liq nizo yuzaga kelgan taqdirda Bank tomonidan sudda dalil sifatida taqdim etilishi mumkinligini tan oladi.

3.6. MBX tizimi Bank va Mijoz o‘rtasidagi qo‘srimcha axborot aloqa kanali bo‘lib, Mijozga Bankda an’anaviy xizmat ko‘rsatishni istisno etmaydi. Xizmat ko‘rsatish shakli har bir alohida holatda, agar Tomonlar o‘rtasida boshqa kelishuvlar bo‘lmasa, Mijoz tomonidan tanlanadi.

3.7. Mijoz MBX tizimida ro‘yxatdan o‘tishda Bankka o‘zining shaxsiy ma’lumotlarini yig‘ish, qayta ishslash va saqlashga rozilik beradi. Mijozni MBX tizimida ro‘yxatdan o‘tkazish bosqichida Mijozga Shaxsiy ma’lumotlarni qayta ishslashga rozilik bilan tanishib chiqish va uni qabul qilish taklif etiladi.

## **4. BANKNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

4.1. Bank quyidagi majburiyatlarni oladi:

4.1.1. MBX tizimini uzlucksiz ishlashini ta'minlash;

4.1.2. MBX tizimi ishlashi bo'yicha Mijozga maslahat berish va nizoli vaziyatlarni hal etishda ko'maklashish;

4.1.3. qonunchilikda belgilangan tartibda Mijozning shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlash va ularning maxfiyligini ta'minlash.

4.2. Bank quyidagi huquqlarga ega:

4.2.1. qo'shimcha kelishuv tuzmasdan, o'zgartirishlar/qo'shimchalar kuchga kirishidan kamida 10 (o'n) kalendar kun oldin Mijozni albatta xabardor qilgan holda, Tariflarga va ushbu Shartnomaga o'zgartirishlar/qo'shimchalar kiritishga haqli. Agar Mijoz kiritilgan o'zgartirish va qo'shimchalardan norozi bo'lsa, u MBX tizimidagi o'z hisobini (akkauntini) o'chirib tashlash orqali Shartnomani bekor qilishga haqli. Ko'rsatilgan muddat tugagandan so'ng MBX tizimidan foydalanish Mijoz tomonidan Tariflarga va ushbu Shartnomaga o'zgartirishlar/qo'shimchalar qabul qilinganligini anglatadi.

4.2.2. MBX tizimidagi nosozlik tufayli mijozlarning hisobvaraqlariga noto'g'ri o'tkazilgan mablag'lar bo'lsa, mijozni xabardor qilgan holda, uning rozilgisiz noto'g'ri o'tkazilgan pul mablag'larini hisobvaraqdan yechib olish;

4.2.3. mobil ilovada hamkorlar/yetkazib beruvchilar bilan birlashtirishda o'tkaziladigan turli reklama e'lollari, marketing aksiyalarini joylashtirish, banner yoki reklama ko'rinishidagi sodiqlik dasturlari haqida xabardor qilish;

4.2.4. MBX tizimidan foydalangan holda Mijozga xizmat ko'rsatishni bir tomonlama vaqtinchalik to'xtatish:

- Mijoz tomonidan Shartnomada shartlariga, amaldagi qonunchilikka rioya qilinmaganda;
- nizoli vaziyatlar vaqtiga;
- MBX tizimiga xizmat ko'rsatish bilan bog'liq kechiktirib bo'lmaydigan favqulodda va reglament ishlarini bajarilishi uchun, Mijozni ushbu ishlarni bajarish muddatlari to'g'risida xabardor qilgan holda;
- O'zbekiston Respublikasi qonunchiligidagi nazarda tutilgan hisobvaraqlardagi pul mablag'lari xatlangan yoki hisobvaraq bo'yicha operatsiyalar to'xtatib qo'yilgan hollarda;
- amaldagi qonunchilikka muvofiq terroristik yoki boshqa jinoiy faoliyatda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinishi to'g'risidagi olingan ma'lumotlarning mavjudligi, shuningdek, Mijozning shubhali va/yoki gumonli operatsiyalari aniqlanganda;

4.2.5. Shartnomada nazarda tutilgan hollarda ushbu Shartnomani bir tomonlama bekor qilish va Mijozga MBX tizimi orqali xizmat ko'rsatishni to'xtatish.

4.2.6. MBX tizimi orqali Mijozga xizmat ko'rsatish to'xtatilgan yoki bekor qilingan taqdirda, mobil ilovada Mijozga xizmat ko'rsatish to'xtatilganligi yoki bekor qilinganligi to'g'risida xabarnoma shakllantiriladi.

## **5. MIJOZNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI**

5.1. Mijoz quyidagilarga majbur:

5.1.1. MBX tizimiga ulanish uchun Android 6.0 yoki iOS 13 dan past bo'limgan operatsion tizimli mobil qurilmaga va O'zbekiston Respublikasi operatorlarining amal qilayotgan uyali aloqa raqamiga ega bo'lish;

5.1.2. bank mobil ilovasidan to'g'ri foydalanish va MBX tizimidagi operatsiyalar bo'yicha dolzARB ma'lumotlarni ko'rsatish maqsadida, mobil ilovada bank mobil ilovasining versiyasini yangilash zarurligi haqidagi talab paydo bo'lganda, MBX tizimini tegishli tarzda yuklab olish va yangilash;

5.1.3. Sharhnomalar va amaldagi qonunchilik shartlarini o'z vaqtida va vijdonan bajarish;

5.1.4. noma'lum havolalarga o'tmaslik, turli ijtimoiy tarmoqlardan noma'lum ilovalarni o'rnatish fayllarini yuklab olmaslik, shuningdek, uchinchi shaxslarning so'roviga binoan shaxsiy ma'lumotlarni taqdim etmaslik;

5.1.5. Mobil ilovani faqat rasmiy do'konlardan (Google Play, AppGallery, App Store) yuklab olish va boshqa manbalardan foydalanishdan saqlanish;

5.1.6. murakkab parollardan foydalanish va ularni muntazam ravishda o'zgartirish;

5.1.7. hisob qaydnomasi bilan bog'liq bo'lgan har qanday shubhali harakatlar haqida bankni zudlik bilan xabardor qilish;

5.1.8. MBX tizimidan g'ayriqonuniy maqsadlarda, shu jumladan jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish va terrorizmni moliyalashtirish uchun foydalanmaslik;

5.1.9. MBX tizimidan faqat shaxsiy maqsadlarda foydalanish va MBX tizimidan foydalanish huquqini hamda MBX tizimida ro'yxatdan o'tishda kiritilgan uyali aloqa telefon raqamini uchinchi shaxslarga bermaslik;

5.1.10. tizimdan foydalanish uchun ishlataladigan login, parol va SMS-xabar orqali yuborilgan maxfiy kodni sir saqlash;

5.1.11. to'lov rekvizitlarini to'g'ri kiritish, xususan: oluvchining hisob raqami, telefon raqami, kommunal xizmatlar bo'yicha shaxsiy hisob raqamlari va hokazolar;

5.1.12. xalqaro pul o'tkazmalari tizimlari orqali pul mablag'larini olish/jo'natish uchun xizmatdan foydalanishga zarur bo'lgan barcha ma'lumotlarni taqdim etish;

5.1.13. Mobil telefoni yo'qolganda, uchinchi shaxslar tomonidan MBX tizimiga kirish uchun rekvizitlardan noqonuniy foydalanish holatlari aniqlanganda yoki shubha paydo bo'lgan taqdirda, shu jumladan MBX tizimiga ulangan mobil telefon raqami o'zgarganda, Bankni quyidagi usullar orqali xizmatni vaqtincha bloklash to'g'risida darhol xabardor qilish:

- bank bo‘limiga shaxsan tashrif buyurish. Mijoz bankning istalgan bo‘limiga murojaat qilib, zarur ariza shaklini to‘ldirishi mumkin;
- telefon qo‘ng‘irog‘i. Mijoz bankning kontakt markaziga qo‘ng‘iroq qilib, vaziyat haqida xabar berishi va operator ko‘rsatmalariga amal qilishi mumkin;
- elektron pochta. Mijoz bankning info@aab.uz elektron pochta manziliga barcha zarur ma’lumotlarni ko‘rsatgan holda yozma murojaat yuborishi mumkin.

#### 5.1.14. Bankka o‘z vaqtida:

- komissiya to‘lovlari, Bank tariflarida nazarda tutilgan boshqa summalarini;
- MBX tizimi ishdan chiqqanda Bank tomonidan karta/hamyonga xato o‘tkazilgan summalarini to‘lash/qoplash.

#### 5.2. Mijoz quyidagi huquqlarga ega:

- 5.2.1. Bank xodimlaridan Shartnoma shartlarini bajarish masalalari bo‘yicha zarur ma’lumotlarni olish;
- 5.2.2. MBX tizimida mayjud bo‘lgan elektron operatsiyalarini amalga oshirish;
- 5.2.3. Bankdan olinadigan ma’lumotlarni ko‘rish uchun MBX tizimidan foydalanish;
- 5.2.4. istalgan vaqtda MBX tizimidagi o‘z akkauntini (hisobini) o‘chirib tashlash orqali Shartnomani bekor qilish.

### **6. XIZMATLAR NARXI VA TO‘LOV TARTIBI**

- 6.1. MBX tizimidan foydalanish va MBX tizimida amalga oshirilgan operatsiyalar uchun to‘lov miqdori Bank Tariflari bilan belgilanadi.
- 6.2. MBX tizimi orqali Bank tomonidan ko‘rsatiladigan xizmatlar uchun komission to‘lov Bank tomonidan operatsiyalar amalga oshirilishi jarayonida Mijozning SKH/bank hisobvarag‘idan pul mablag‘larini akseptsiz yechib olish yo‘li bilan undiriladi.

### **7. TOMONLARNING JAVOBGARLIGI**

- 7.1. Shartnoma bo‘yicha o‘z majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun Tomonlar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo‘ladilar.
- 7.2. Shartnoma qoidalariga rioya qilish Bank va Mijoz uchun majburiydir.
- 7.3. Mijoz MBX tizimi orqali amalga oshiriladigan barcha operatsiyalar uchun, ularni o‘zi yoki uchinchi shaxslar amalga oshirishidan qat’i nazar, mustaqil ravishda javobgar bo‘ladi. MBX tizimida mijoz tomonidan amalga oshiriladigan barcha operatsiyalar bevosita mijoz tomonidan bajarilgan operatsiyalar sifatida baholanadi.
- 7.4. Bank quyidagilar uchun javobgar emas:

7.4.1. Mijoz Shartnoma va amaldagi qonunchilikda nazarda tutilgan talablarga rioya qilmaganligi taqdirida, Mijoz uchun yuzaga kelgan salbiy oqibatlar (shu jumladan, unga yetkazilgan zararlar) uchun;

7.4.2. agar hisobvaraqlar va/yoki ular bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar to'g'risidagi ma'lumotlar Bankning aybisiz uchinchi shaxslarga ma'lum bo'lib qolsa;

7.4.3. Mijoz tomonidan MBX tizimidan foydalangan holda amalga oshirilgan to'lov operatsiyalarining mazmuni va/yoki rasmiylashtirilishining to'g'riliqi uchun. Bank bunday hollarda Mijoz tomonidan MBX tizimi orqali amalga oshirilgan to'lovlarni qaytarish majburiyatini o'z zimmasiga olmaydi;

7.4.4. Bankka bog'liq bo'lmanan holatlar tufayli MBX tizimiga kirishni ta'minlash imkonini bo'lмагanda;

7.4.5. aloqa liniyalarining sifati va texnik holati uchun;

7.4.6. mobil operatorlar tarmoqlarida va internet-provayderlar xizmatlarida yuzaga keladigan kechikishlar va uzilishlar uchun;

7.4.7. Mijoz ushbu Shartnomaning 5.1.2. - 5.1.10-kichik bandlarida nazarda tutilgan majburiyatlarni buzgan taqdirda, uning hisob qaydnomasiga ruxsatsiz kirish natijasida Mijoz ko'rishi mumkin bo'lgan yo'qotishlar yoki zararlar uchun.

## **8. FORS-MAJOR HOLATLARI**

8.1. Tomonlar Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun, agar bunday bajarmaslik yoki lozim darajada bajarmaslik yengib bo'lmaydigan kuch holatlari (fors-major holatlari) oqibatida yuzaga kelgan bo'lsa, javobgarlikdan ozod etiladi.

8.2. Tomonlar yengib bo'lmas kuch holatlari deganda Shartnoma tuzilgandan so'ng favqulodda yuz bergen kutilmagan va oldini olib bo'lmaydigan hodisalar, masalan: urushlar va harbiy harakatlar, tabiiy ofatlar, uyali aloqa operatorlarining harakatlari, O'zbekiston Respublikasi qonun chiqaruvchi va/yoki ijro etuvchi hokimiyat organlarining, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining Tomonlarning Shartnoma predmetiga bevosita aloqador faoliyatini taqiqlovchi yoki chekllovchi harakatlarini tushunadi.

8.3. Tomonlar kommunal xizmatlar va aloqa xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarining Tomonning Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarishga to'sqinlik qiladigan harakatlari va harakatsizligini, shuningdek Tizim ishidagi texnik uzilishlarni ham fors-major holatlariga kiritadi.

8.4. Shartnomaning 8.2. va 8.3. bandlarida ko'rsatilgan holatlar tufayli Shartnoma bo'yicha majburiyatlarni bajarish imkoniyati bo'lmanan tomon boshqa tomonni kechiktirmasdan yozma ravishda xabardor qilishi va boshqa Tomonning talabiga ko'ra fors-major holatlari yuzaga kelganligi va/yoki tugaganligini tasdiqlovchi dalillarni taqdim etishi shart. Vakolatli organ tomonidan berilgan yozma hujjatlar ko'rsatilgan holatlarning yuz bergenligi va davom etganligining dalili bo'lib xizmat qiladi.

8.5. 8.2. va 8.3. bandlarida nazarda tutilgan hollarda, Shartnoma bo‘yicha majburiyatlarni bajarish muddati bunday holatlar va ularning oqibatlari amal qilgan vaqtga mutanosib ravishda kechiktiriladi.

8.6. Agar yengib bo‘lmash kuch holatlari ketma-ket 30 kalendar kundan ortiq davom etsa, tomonlarning har biri Shartnomani bekor qilishga haqli. Bank ko‘rsatilgan holatda Shartnomani bekor qiladi va Shartnomani bekor qilish to‘g‘risidagi tegishli bildirishnomani Bank bo‘linmalaridagi stendlarga, [www.aab.uz](http://www.aab.uz) rasmiy veb-saytiga yoki Bank tanloviga ko‘ra boshqa usulda joylashtiradi.

## **9. SHARTNOMA AMAL QILISH MUDDATI VA UNI BEKOR QILISH TARTIBI**

9.1. Shartnoma Mijoz MBX tizimida ro‘yxatdan o‘tgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi va muddatsizdir.

9.2. Shartnoma Mijoz tomonidan istalgan vaqtda bekor qilinishi mumkin.

9.3. Shartnoma Bank tomonidan bir tomonlama tartibda quyidagi hollarda bekor qilinishi mumkin:

- Bank tomonidan Mijozlarga MBX tizimi orqali xizmat ko‘rsatishni to‘xtatish to‘g‘risida qaror qabul qilinishi;
- Mijoz tomonidan Shartnomada belgilangan shartlar va MBX tizimi orqali bank xizmatlarini ko‘rsatish shartlarining buzilishi;
- Amaldagi qonunchilikka muvofiq olingen terroristik yoki boshqa jinoiy faoliyatda ishtirok etayotgan yoki ishtirok etishda gumon qilinishi to‘g‘risidagi olingen ma’lumotlarning mavjudligi, shuningdek, Mijozning shubhali va/yoki gumonli operatsiyalari aniqlanganda;
- O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi, bank ichki qoidalarida nazarda tutilgan boshqa hollarda.

## **10. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI**

10.1. Ushbu Shartnoma bo‘yicha nizolar muzokaralar yo‘li bilan hal etiladi. Kelishuvga erishilmagan taqdirda nizo O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq vakolatli sudlarda ko‘rib chiqilishi lozim.

10.2. Agar Shartnomaning bir qismi qonunchilikda belgilangan tartibda haqiqiy emas deb topilsa, bu holat, agar amaldagi qonunchilikda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, butun Shartnomaning va/yoki uning boshqa qismlarining o‘z-o‘zidan haqiqiy emas deb topilishiga olib kelmaydi.

10.3. Ushbu Shartnoma bilan tartibga solinmagan masalalar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi bilan tartibga solinadi.